

**EKOLOGIYA QONUNCHILIK BUZGANLIK UCHUN YURIDIK  
JAVOBGARLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

*Қобилов Шухрат Рўзиевич*

*Тошкент вилояти юридик техникуми*

*Мутахассислик фанлари кафедра mudiri,*

*Юридик фанлари номзоди*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada ekologiya sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalasi hamda uning samaradorligini oshirishning asosiy muammolari tahlil qilingan, shuningdek mazkur muammolarning yechimi o'laroq bir qancha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

**Kalit so'zlar:** yuridik javobgarlik, kompleks himoyaviy huquq, tovon, mulkiy zarar, jinoiy javobgarlik

Keyingi paytlarda yuridik javobgarlik to'g'risidagi normalarni yuksaltirish choralari ishlab chiqish, tabiatni muhofaza qilish borasidagi munosabatlar doirasida ularni qo'llashning tartib va shartlarini takomillashtirishni maxsus tahlil qilishga huquq fani sezilarli darajada e'tibor qaratmoqda. Ammo tabiatni muhofaza qilish borasidagi yuridik javobgarlik muammolari murakkab va keng qamrovli bo'lganliklari sababli bir qator masalalar bizni nazrimizda adabiyotlarda o'z ifodasini to'liq topmaga va asoslab berilmagan. Ba'zi muammolar esa bir qator tomonlama tadqiq etilgan. Jumladan, tabiatni muhofaza qilish borasidagi yuridik javobgarlikning samaradorligi masalalari asosan har bir javobgarlik turli bo'yicha mustaqil ko'rib chiqilgan. Bu holatni nazarda tutgan holada javobgarlikning alohida turlari kelajakda o'rganish paytida ularning ekologik huquqbuzarliklar faktiga bir vaqtning o'zida kompleks himoyaviy-huquq ta'sirini ta'minlash muammosiga e'tibor qaratish zarur. Bunda javobgarlik turlarining o'zaro hamkorligini ko'rib chiqish, aynan shu nuqtai nazardan javobgarlik turlari to'g'risidagi qonunchilikning barkamollik darajasini baholash lozim. Tabiatni muhofaza qilish borasidagi javobgarlik turlarining normalari va tizimini takomillashtirishga ta'luqli muammolarning ishlab chiqilganlik holatini, doirasi yulanishlarni eng umumiy ko'rinishda belgilab olib, ushbu paragrafda alohida, o'ta muhim va bizning nazrimizda bahslab bo'lgan muammolar va fikr-muloohazarlarni ko'rib chiqamiz. Bayon qilinganlarni hisobga olgan holda ekologik huquqbuzarliklar sodir etilganlik uchun yuklatiladigan javobgarlikni umumiy va maxsus, prinsipial masalalarni nazarda tutish, ya'ni yuridik javobgarlik choralari vositasida himoya qilinishi lozim bo'lgan tabiatni muhofaza qilish borasidagi yuridik javobgarlik prinsiplarini mustahakamlash, sodir etilgan huquqbuzarliklarning o'ziga xosligini hisobga olingan holda

huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan sanksiyalarni, javobgarlik turi va chegaralarini ko'rsatgan holda javobgarlik sub'ektini aniqlash, asosiy va eng ko'p tarqalgan huquqbuzarliklarning taxminiy ro'yxatini tuzish, ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik choralari qullash va amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan organlar va mansabdor shaxslarning ro'yxatini tuzish, huquqni qo'llash jarayonining asosiy qoidalarni aks ettirishi lozim. Ekologik huquqbuzarliklikning asosiy qismi zarar keltirib chiqaradi. Shuni hisobga olib, uni qoplash masalalari batafsil va qat'iy belgilanishi kerak. Jumladan, natura bilan qoplash evaz to'lash usuliga qaraganda ustuvorlikka ega ekanligini ta'kidlash lozim. Etkazilgan zararni aniq hisoblab bo'lmaydigan hollarda zararni to'liq qoplashning universal usuli bilan bir qatorda zararni eng yuqori miqdorda (maksimal) qoplash prinsipini ham mustahakamlab quyish kerak. Uning mazmuni etkazilgan zararning eng yuqori miqdorini hisobga olishdadir. Boshqaruv aktlari va qarorlarini qabul qilishda mehnat jamoalarining roli oshib boradi, zero xujalik yuritish va boshqarishning yangicha prinsiplari shuni taqazo etadi. Bunday hollarda jamoaviy javobgarlik to'g'risidagi masalalari dolzarblik kasb etadi. Shu sababdan, javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikda qabul qilingan ekologik xat6 qarorlarning salbiy oqibatlari uchun mehnat jamoasi va uning bilimlariga yuklatiladigan moddiy javobgarlikning asosiy qoidalarni aks ettirish, uning manbalari va chegaralarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Huquqiy xo'jalik xisobi sharoitida tabiatni muhofaza qilishning iqtisodiy usullarini qo'llashga o'tish fuqaroviy-huquqiy muhofaza qilish borasidagi javobgarlik mexanizmida uning mazmunini oldindan belgilab quyilgan, u brinchi navbatda tovon (evaz) to'lash funksiyasini amalga oshiradi. Javobgarlik turlari orasida yuzaga kelgan "mehnat taqsimoti" bo'yicha u zarar keltirilgan huquqbuzarliklarga tiklash yo'li bilan yoki qoida bo'yicha yetkazilgan zararni qoplash yo'li bilan munosabat bildirishga safarbar qilingan. Tabiatni muhofaza qilish borasidagi fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning asosiy maqsadi bo'lish zararni qoplash masalasi hal etilgach, keyingi navbatda – tabiatni muhofaza qilish borasidagi yuridik javobgarlikni yagona mexanizmi doirasida javobgarlikning so'ngi funksiyasini amalga oshirish, ya'ni huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni tag-tomiri bilan quritish uning asosiy usuli sifatida maydonga chiqadi. Har bir ekologik huquqbuzarlik zarar keltirishiga sabab bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, fuqaroviy-huquqiy javobgarlik funksiyalarining, birinchi navbatda uning evas to'lash funksiyasining barcha yuridik kuchini to'laqonli ravishda amalga oshirish muammosining qanchalar ahamiyatga ega ekanligini anglab etish qiyin emas. Ammo bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish borasidagi fuqaroviy-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi maxsus qonunchilikda bir qator tabiat ob'ektlarining, ya'ni faqat suv havzalarini, o'rmonlarini, suvda va er ustida yashovchi jonivorlarini muhofaza qilish nazarga tutilgan. Ammo er va er osti boyliklari, atmosfera havosi singari tabiat ob'ektlari xususida maxsus normalar yo'q. Bu holat tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikning liddiy

kamchiligidir. Fuqarolik qonunchilikning umumiy normalari asosida bevosita zararni qoplatish juda qiyin bo'lganligi, bazan esa buning butunlay imkoni yo'qligi sababli bu obe'klarga nisbatan qo'llaniladigan maxsus normalarni ishlab chiqish o'ta zaruriyatdir. Ushbu tabiat obe'klarning ishlab chiqarish-xujalik jarayonlariga yuqori darajada jalb etilganligi shuni taqazo etadi, bu esa ularning miqdor va sifat jihatdan yaxlitligiga, o'zaro alqalarning moslashganligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, tabiat boyliklaridan foydalanish jarayonida ularga nisbatan beparvolik bilan, shaxsiy talab nuqtai nazaridan munosabatda bo'lish salbiy ta'sirini yanada kuchaytiradi. Unga qarshi kurash vositalardan biri texnologik jarayonlarni buzish orqali zarar etkazilganligi uchun qazib oluvchi va boyituvchi sanoat korxonalarni moddiy javobgarlikka tortishdir; loyihalovchi tashkilotlar esa er osti boyliklarni o'zlashtirishni loyihalastirishda yo'l qo'ygan xatolari uchun javobgarlikka tortiladilar. Agar zararni hisoblab chiqishning maxsus ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqilsa, normative ta'minlanganligi nuqtai nazaridan bu javobgarlikni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bu chora boshqa choralar bilan bir qatorda er osti boyliklardan foydalanuvchilarni er osti boyliklarning barcha elementlaridan kompleks foydalanish prinsipiga rioya etishga yo'naltiradi. Bu chora, bizning nazarimizda, er osti boyliklardan oqilona foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonunchilik uchun asos bo'lishi lozim. Yerga oid huquqbuzarliklarning adabiyotlarda misol qilib keltirilgan tuzulishining ko'rsatilishicha, ularning ko'pchiligi moddiy zarar yetishiga olib keladi. Tegishli belgilar mavjud bo'lganda bu huquqbuzarliklarning ko'pchiligi jinoy javobgarlik yuklatilishiga sabab bo'ladi. Ammo huquqbuzarliklar sub'ektiga qaratilgan hamda jazolash-oldini olish funksiyasining ado etilgan jinoiy javobgarlik normalarni zararini qoplash masalalarini hal etolmaydi. G'ayrihuquqiy ravishda yetkazilgan zararni qoplash fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning maxsus normalari orqali taminlanishi lozim. Ularning asosiy belgisi yuridik javobgarlikning yagona tizimida evaz tulashtirish funksiyasini amalga oshirishdir. "fuqaroviy-huquqiy javobgarlik yerga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi uchun emas, balki bu huquqbuzarliklarni sodir etib, mulkiy zarar yetkazganligi uchun yuklatiladi". Ammo tabiatni muhofaza qilinadigan boshqa ob'ektlardan farqli o'laroq yerni muhofaza qilish sohasida g'ayrihuquqiy tarzda yetkazilgan zararni qoplash maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalaridagi nobudgarchiliklar va yerdan foydalanuvchilar kurgan zararni qoplash institut normalari ishlatilishi mumkin. Bu institut normalarida qonuniy faoliyat yuritish natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash hollari nazarga tutiladi. Bu normalar qishloq xujaligi ihtiyordagi yerlar ustuvorligini ta'minlashining yer qonunchiligida nazarda tutilgan yuridik faoliyatlarini taraqqiy ettirishi va amalga oshirilishini ifoda etadi. Bu institut birinchi navbatda qishloq xo'jalik ihtiyoridagi yerlarni boshqa ehtiyojlar uchun berishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka safarbar qilingan. Zararga huquqiy baho berish va

uni hisoblab chiqish uning g'ayrihuquqoy yoki qonuniy ravishda yetkazilganligiga qarab xató fuqaroviy-huquqqiy vositalar doirasida ham bir-biridan ajralib turadi. Fuqarolik qonunchiligiga binoan g'ayrihuquqiy axloq natijasida yetkazilgan zarar to'liq hajmda qoplanishi kerak. Fuqarolik qonunchiligi bo'yicha kreditor qilingan sarfxarajatlar, uning mulkining yuqolishi yoki unga zarar yetishi, shuningdek uning tomonidan olinmay qolgan foydalar, zarar qatoriga kiradi. Shunga asosan, yer uchaskasini buzish orqali yetkazilgan zararni qoplashdayerning unimdorlik sifatlarini tiklash bo'yicha qilingan barcha majburiy sarf-xarajatlal, shuningdek yerning o'z asosiy maqsadida foydalanish uchun yaroqli holga keltirilgunga yerdan foydalanuvchi tomonidan olinmay qolgan foyda miqdori ham hisoblab chiqiladi. Yerning noqonu iy ravishda egalab olish natijasida yetkazilgan zarar ham xuddi shu tartibda hisoblab chiqiladi. Ko'rsatib o'tilgan qoidalardan farqli o'laroq qonuniy faoliyat natijasida yetkazilgan zarar noto'liq holda ham qoplanishi mumkin. Masalan, yer uchaskalari qonuniy ravishda olib qo'uilganda yerdan foydalanuvchilarga faqat ular qilgan sarf-xarajatlar to'lanadi, xolos. Qishloq xo'jalik korxonalari ko'rgan zararlar va nobudgarchiliklarni qoplash to'g'risidagi normative hujatlardan haqiqiy va zaruriy sarf-xarajatlar majmunitashkil etuvchi barcha chiqimlar sanab o'tilgan. G'ayrihuquqiy ravishda zarar yetkazilgan hollarda yerdan foydalanuvchi amalda qilgan sarf-xarajatlar bilan birga qilishi zarur bo'lgan chiqimlar mana shu normative hujjatlar asosida hisoblab chiqiladi."Okinmay qolgan foyda" deb atalgan zarar esa bevosita fuqarolik qonunchiligi asosida majburiy ravishda qoplanishi kerak.G'ayriqonuniy ravishda yetkazilgan zarar bilan qonuniy ravishdayetkazilgan zararni huquqiy baholashining farqlari va o'ziga xosliklari mana shundan iborat.G'ayriqonuniy ravishda yetkazilgan zararini qoplash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda bu holatta ko'pincha etibor berilmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. Малеев Н.С. Правонарушение понятие, признаки ответственность – М.: 1985
3. Гуломов М., Жўраев Й. Экология: жиноят ва жазо – Т.: Ўзбекистон, 1991.
4. Дубовник О.Л. Механизм действия права вохране окружающей среды – М.: Наука 1984 й
5. Денисов Ю.А – Общаятеория правонарушения и ответственности – л. Изд-во ЛГУ, 1983 г